

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalari va arbitraj institutlarini takomillashtirish masalalari

Nurmuxammedova Farruxa Faxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalarini tuzish bo‘yicha mavjud huquqiy tizim yoritilgan hamda ushbu shartnomalarni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Maqolada investitsiya nizolarini hal etishda xalqaro arbitraj institutlarining o‘rni ko‘rib chiqilib, ularning faoliyatini milliy qonunchilik doirasida samarali qo‘llash imkoniyatlari baholangan. Shu asosda, investitsiya shartnomalarini yanada takomillashtirishga doir qonunchilikka tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya shartnomasi, huquqiy tartibga solish, xorijiy investor, xalqaro arbitraj, shaffoflik, ochiqlik, preferensiyalar, qonunchilik, monitoring, ijtimoiy infratuzilma, davlat kafolatlari, jamoatchilik nazorati.

Annotation: This article examines the existing legal framework for the conclusion of investment agreements in the Republic of Uzbekistan and substantiates the necessity of improving such agreements. It analyzes the role of international arbitration institutions in resolving investment disputes and evaluates the possibilities of effectively applying their mechanisms within the national legal system. Based on this analysis, the article proposes relevant legislative suggestions aimed at further enhancing the regulation of investment agreements.

Keywords: Investment agreement, legal framework, international arbitration, dispute resolution, legislation, legal reform.

Аннотация: В данной статье освещается существующая правовая система заключения инвестиционных соглашений в Республике Узбекистан, а также обосновывается необходимость их совершенствования. Рассматривается роль международных арбитражных институтов в разрешении инвестиционных споров и оцениваются возможности эффективного применения их механизмов в рамках национального законодательства. На основе проведённого анализа предлагаются соответствующие законодательные инициативы по дальнейшему совершенствованию регулирования инвестиционных соглашений.



Ключевые слова: Узбекистан, инвестиционное соглашение, правовая база, международный арбитраж, разрешение споров, законодательство, правовая реформа.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faollashib borishi jarayonlari O‘zbekiston Respublikasining jahon savdo tizimiga faol integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan e‘tiborning sezilarli darajada kuchayishiga olib kelmoqda. 2021 yil 24 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida investitsiya va eksport sohasidagi ishlar natijadorligi, yil yakunigacha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishida ham ushbu masalalar muhokama etilib, davlatimiz rahbari: mamlakatimizda iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish, dolzarb loyihalarni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida faol investitsiyaviy siyosat olib borilayotgani natijasida, 2017 yildan boshlab barcha manbalar hisobidan 716 trillion so‘m (83 milliard dollar) yoki oldingi davrga nisbatan 2 baravardan ziyod investitsiyalar o‘zlashtirilganligini aytib o‘tdi. Shuningdek, ushbu davrda 441 trillion so‘mlik 47 mingdan ziyod yirik, o‘rta va kichik loyihalar ishga tushirilganligi, 680 mingdan ortiq doimiy yangi ish o‘rinlari yaratilgani hamda joriy yilda umumiy qiymati 6 milliard 500 million dollarlik 226 ta yirik tarmoq va hududiy loyihalar ishga tushirilishi, 35 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilishi mo‘ljallangani alohida qayd etildi. Yig‘ilishda ularning ijrosi ham ko‘rib chiqildi. Muddatidan kechikayotgan loyihalar ko‘rsatib o‘tilib, ularni o‘z vaqtida ishga tushirish choralari belgilandi. Bundan tashqari, Prezidentimiz tarmoq va hudud rahbarlarining asosiy vazifasi investitsiyaviy faollikni kuchaytirish bilan birga, ularning samaradorligini oshirish bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi¹. Investitsiya resurslari orqali ishlab chiqarish tarmoqlarining texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilinishi ta‘minlanadi, shuningdek, iqtisodiy jihatdan muhim va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘li bilan mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishi, aholining bandlik darajasining oshishi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 24 iyundagi investitsiya va eksport sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishidagi nutqi.

URL:<https://president.uz/uz/lists/view/4449>



hamda ularning hayot sifati va darajasini yaxshilashga erishish mumkin bo‘ladi. Shu munosabat bilan, investitsiya shartnomalarini huquqiy jihatdan chuqur o‘rganish va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalari va arbitraj institutlarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo‘llanilgan. Tadqiqotning metodologik asosini sistemali, tarixiy, tahliliy hamda qiyosiy-huquqiy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar orqali investitsiya shartnomalarining O‘zbekiston huquqiy tizimidagi o‘rni, ularning normativ asoslari, huquqiy muammolari chuqur tahlil etildi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining investitsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, investitsiya shartnomalarini tuzish, ularni amalga oshirish va nazorat qilish tartiblariga doir amaldagi me‘yoriy-huquqiy bazaga tayangan holda tahliliy yondashuv qo‘llanildi.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi hukumati ishtirokida tuziladigan investitsiya shartnomasining predmeti sifatida investor tomonidan muayyan investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida olib boriladigan investitsiya faoliyati nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqilsa, shartnoma predmeti uning doirasida bajariladigan harakatlar orqali aniqlanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Shu bois, A.S.Danilevichning “Hukumat bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining predmeti - bu faqat investitsiyalarning o‘zi” degan qarashiga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi². Shuningdek, investitsiya shartnomalarining tuzilishi, asosan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida qaraladi³. Jumladan, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasida xorijiy investor hamda investitsiya

² Данилевич, А.С. Арбитражная оговорка в инвестиционном договоре с Республикой Беларусь / А.С. Данилевич // Пром.-торговое право. - 2010. - № 5. - С. 70.

³ Rustambekov I. Business Environment and Investment Climate in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Research. #4, 2019. P.1282 // URL: <http://www.journalijar.com/artcle/27382/business>



faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi nomidan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining investitsiya shartnomasi tuzishdagi vakolatlari belgilangan⁴. Investitsiya shartnomalari, shuningdek ularga kiritiladigan barcha turdagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar faqat yozma shaklda tuzilishi lozim. Har ikkala holatda ham shartnoma tuzish jarayoni bir xil tartibda amalga oshiriladi. Ushbu shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan imzolanadi. Investitsiya shartnomasini tuzish bo‘yicha tashabbus esa chet el investori tomonidan mustaqil ravishda yoki belgilangan tartibda tegishli davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan hamkorlikda ilgari surilishi mumkin. Shartnoma tuzish taklifi bilan chiqish uchun investor quyidagi hujjatlarni Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga yoki Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligiga taqdim etishi kerak:

investitsiya shartnomasi tuzishdagi asosiy maqsad, tanlangan investitsiya obyekti va investorning ushbu sohadagi tajribasi (agar mavjud bo‘lsa) haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ariza;

tasdiqlangan namunaviy shakldagi shartnoma loyihasi;

zarurat bo‘lgan taqdirda vakolatli organlar tomonidan ekspertizadan o‘tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslar va ularga asoslangan biznes-reja.

Tegishli davlat organlari, xususan Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, shuningdek Davlat bojxona qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida huquqiy, moliyaviy va iqtisodiy jihatlar bo‘yicha xulosalar beradi. Shartnoma loyihasi va unga tegishli hujjatlar tegishli tashkilot tomonidan olgan kundan boshlab 15 kalendar kuni ichida ko‘rib chiqiladi. Agar qo‘shimcha ekspertiza, tahlil yoki boshqa tadbirlar zarur bo‘lsa, ushbu muddat 30 kunga uzaytirilishi mumkin, bu haqda investor yozma tarzda ogohlantiriladi. Barcha vakolatli organlar bilan kelishuvga erishilgach, shartnoma loyihasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi. U yerda hujjatlar ko‘rib chiqilib, tasdiqlanadi yoki lozim bo‘lsa, tuzatishlar kiritish uchun qaytariladi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma’qullangan shartnoma Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan imzolanadi. Shundan so‘ng vazirlik hukumat qarori

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., №03/19/598/4221. Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/4664142>



loyihasini tayyorlaydi va uni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga yuboradi. Shartnoma ushbu qaror qabul qilingan kundan yoki unda belgilangan boshqa sanadan boshlab yuridik kuchga ega bo‘ladi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan investitsiya shartnomasi doirasida investor zimmasiga yuklangan majburiyatlarning bajarilishi ustidan doimiy monitoring amalga oshiriladi. Investor esa shartnomada belgilangan muddatlarda va shaklda hisobot taqdim etish majburiyatiga ega. Investitsiya shartnomasi doirasida nazarda tutilgan qo‘shimcha kafolatlar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa preferensiyalar ushbu shartnomaning amal qilish muddati yakuniga yetgach o‘z kuchini yo‘qotadi. Zarurat tug‘ilganda, ular shartnomada ko‘rsatilgan tartib asosida muddatidan ilgari ham bekor qilinishi mumkin.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining (keyingi o‘rinlarda Qonun) 8-bobida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining xorijiy investorlar bilan tuzadigan investitsiya shartnomalariga oid huquqiy normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu normalarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining xorijiy investorlar bilan o‘zaro kelishuv asosida tuzadigan investitsiya shartnomalari doirasida, majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida qo‘shimcha imtiyozlar va preferensiyalar nazarda tutilishi mumkin⁵.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-apreldagi №264-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan chet ellik investor o‘rtasida investitsiya shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish kiritish, tugatish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda ushbu jarayonlarning huquqiy asoslari belgilab qo‘yilgan⁶.

Mazkur hujjat xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha kafolatlar hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari doirasida, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining xorijiy investorlar bilan tuzadigan investitsiya

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., №03/19/598/4221. – Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/4664142>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining xorijiy investorlar bilan investitsiya shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish kiritish, bekor qilish va ularni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2020-yil 30-apreldagi 264-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2020 y., №09/20/264/0530. – Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/4804055>



shartnomalarini tuzish, o'zgartirish kiritish, tugatish va amalga oshirish tartiblarini aniq belgilaydi .

Biroq, amaldagi qonunchilik hujjatlarida xorijiy investorlar bilan tuziladigan investitsiya shartnomalar bo'yicha teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida ochiq tanlov o'tkazish va eng maqbul investitsiya loyihalarini saralab olish tartibi belgilab qo'yilmagan. Mazkur holat o'z navbatida, raqobat muhitini va budjetga eng katta foyda keltiradigan loyihalarni tanlab olish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati xorijiy investor bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokara asosida avtomobil yig'ish zavodi qurish bo'yicha investitsiya shartnomasi tuzdi. Ushbu shartnoma asosida investor mamlakatda yangi avtomobillar ishlab chiqarishni boshlashni va'da berdi va unga soliq, bojxona preferensiyalari, yer maydoni ajratilishi, ishlab chiqarilgan avtomobillarni ichki bozorda realizatsiya qilish uchun huquqlar va imtiyozlar taqdim etildi. Biroq, ayni vaqtda boshqa bir xorijiy investor yashil (green) texnologiyalarga asoslangan elektromobillar ishlab chiqarishni taklif qilgan, yuqori lokalizatsiya darajasini (ya'ni, mahalliy ehtiyot qismlar ulushini) ta'minlashga tayyor bo'lgan, mahalliy muhandis va mutaxassislarni o'qitish markazini ochishni rejalashtirgan bo'lsa, ochiq tanlov tartibi mavjud bo'lmagani sababli, davlat organlari faqat bitta investor bilan muzokara yuritib, boshqa takliflarni ko'rib chiqmagan bo'lishi mumkin. Natijada, texnologik jihatdan zamonaviy va ekologik toza yechimlar, davlat uchun yanada manfaatli iqtisodiy shartlar e'tibordan chetda qolishi mumkin. Shu bois, mazkur yo'nalishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, investorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida investitsiya shartnomalarini auksion (kim oshdi savdosi) natijalari asosida tuzish tartibini joriy etish hamda bu jarayonga jamoatchilik nazoratini tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuvni qonunchilikda mustahkamlash lozim. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-598-sonli Qonunining 43¹- moddasiga hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-apreldagi 264-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan xorijiy investor o'rtasida investitsiya shartnomasini tuzish, o'zgartirish kiritish, bekor qilish va ularni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga quyidagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

“43¹-modda. Kimoshdi savdosi orqali O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasi tuzish



O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasi ochiq auksion (kim oshdi savdosi) natijalariga ko‘ra quyidagi holatlarda tuziladi:

agar bir xil yoki o‘zaro o‘xshash investitsiya loyihasi doirasida, xususan, bitta yer uchastkasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihaga nisbatan ikki yoki undan ortiq investor tomonidan hukumat bilan investitsiya shartnomasi tuzish istagi bildirilgan bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasi hududida yer qa‘ridan foydalanishga oid investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan hollarda.

Ochiq kimoshdi savdolarini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvofiq, investitsiya shartnomasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar asosida, ochiq auksionlar o‘tkazilmasdan ham tuzilishi mumkin”.

Bu orqali, xorijiy investorlar uchun teng sharoit yaratiladi, eng yaxshi texnologik, iqtisodiy va ekologik shartlarni taklif etayotgan investor tanlab olinadi, bu esa davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda xalqaro investitsiya shartnomalari va xalqaro investitsiya arbitraji bilan bog‘liq muammolardan yana biri mazkur jarayonlarning ochiqligi va shaffofligi bilan bog‘liq masala hisoblanadi. Bugungi iqtisodiy rivojlanish sharoitida zamonaviy huquqiy yondashuvlarni e‘tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, rivojlangan davlatlar amaliyotida hukumatlar korxonalar uchun zarur ma‘lumotlarning erkin ochiqligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Mazkur yo‘nalishda, masalan, Singapur tomonidan ilgari surilgan “aqli millat” tashabbusi doirasidagi ochiq ma‘lumotlar konsepsiyasi namuna sifatida ko‘rsatilishi mumkin⁷. Bunday tashabbuslarning bosh maqsadi - investitsiya faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish, transmilliy darajadagi investitsion ma‘lumotlar almashinuvini jadallashtirish hamda sun‘iy intellekt asosidagi innovatsion texnologiyalarni ilgari surish orqali ilg‘or g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Ta‘kidlash lozimki, investitsiya shartnomalari faqatgina investorlar va investitsion faoliyat ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini emas, balki umumjamoat manfaatlariga taalluqli normalarni ham

⁷<https://docplayer.ru/56568253-Cifrovaya-ekonomikasingapura-sozdanie-ekonomiki-budushchego-i-iniciativa-uinnaya-naciya-nekotorye-fakty-i-cifry-osnovy-ekonomikisingapura.html>



o‘z ichiga oladi. Har qanday investitsiya loyihasining amalga oshirilishi, eng avvalo, u faoliyat yuritadigan hudud aholisi uchun ahamiyatlidir. Masalan, xorijiy investorlar tomonidan mahalliy fuqarolarni ish bilan ta‘minlash, ularning mehnat huquqlarini kafolatlash va loyihani amalga oshirish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish orqali mintaqaning o‘zini kompleks tarzda taraqqiy ettirish mumkin bo‘ladi. Mamlakatimizda xalqaro investitsiya shartnomalari haqida ochiq, ommaviy axborotlar mavjud emas, shuningdek, loyihalarning bajarilishi holati haqida ma‘lumotlar tegishli davlat organlarining veb-saytlarida ham yetarlicha e‘lon qilinmaydi⁸. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Biznes va inson huquqlari to‘g‘risidagi shartnomasi”da qayd etilishicha, savdo va investitsiya bitimlari insonlarning ishtirok etish huquqiga hurmat bilan yondashgan holda, davlatlarning ushbu bitimlarni xalqaro huquq standartlariga muvofiq tarzda tuzishi va izohlashi majburiyatini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida ham investitsiya jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik asosida tashkil etish, xususan, inson huquqlarini investitsiya shartnomalarida himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Bunda alohida e‘tibor, shartnomalarni tuzish va amalga oshirish bosqichlarida umumiy jamiyat manfaatlarini inobatga olish, hamda keng jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga qaratilishi lozim. Xalqaro investitsiya shartnomalarida investorlar uchun maxfiylik tamoyili muhim bo‘lsada, ba‘zi masalalar bo‘yicha ya‘ni shartnoma asosida berilgan imtiyozlar, davlat kafolatlari, mahalliy aholi manfaatlariga taaluqli holatlar yuzasidan jamoatchilik fikrini o‘rganish muhim hisoblanadi. Bunda ochiqlik tamoyili xalqaro investitsiya shartnomalari bilan bog‘liq barcha masalalarga tatbiq etilmaydi. Investorlarga doir moliyaviy, tijorat sirlari va texnologik yechimlar sir saqlanadi, shartnoma doirasidagi strategik axborotlarning raqobatchilarga oshkor bo‘lishini oldini olish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘riladi va arbitraj jarayonlarining ayrim bosqichlarida yopiq eshittirishlar va maxfiy hujjatlar saqlab qolinadi. Mazkur islohot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan investitsiya shartnomalari reyestrini yuritish, ularning asosiy shartlari, davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va kafolatlari,

⁸ Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish agentligining veb-sayti, “Investitsiyaviy loyihalarning amalga oshirilishi bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi” bo‘limi.



shuningdek, jamiyat manfaatlariga oid boshqa masalalar haqida ochiq ma'lumotlar tizimini shakllantirish zarurdir.

Xorijiy investorlar bilan tuziladigan investitsiya shartnomalarining muhim elementlaridan biri, ularning nafaqat iqtisodiy daromad keltirish, balki mahalliy infratuzilmani rivojlantirishga ham xizmat qiluvchi huquqiy mexanizm sifatida ko'rilishidir. Investitsiya shartnomalarida hududning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha tomonlarning o'zaro majburiyatlari, chet ellik investorning texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xodimlarni o'qitish va malakali ishchi kuchi yaratish bo'yicha majburiyatlari, chet el investori tomonidan loyiha tugagandan so'ng ham ijtimoiy ta'sirni davom ettirish (masalan, tashkilot xodimlarini o'qitish, ijtimoiy infratuzilmani saqlab qolish) kabi majburiyatlar nazarda tutiladi⁹. O.Tsegelnikning fikricha, davlat bilan tuziladigan investitsiya shartnomalarida qo'llab-quvvatlash choralari (imtiyoz va preferensiyalar) berish jarayoni faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, vakolatli davlat organining normativ-huquqiy hujjati orqali amalga oshirilishi kerak¹⁰. O'zbekiston amaliyotida ham investitsiya shartnomalari orqali imtiyoz va preferensiyalar berish to'g'ridan-to'g'ri muzokaraga asoslanadi, aniq qonun normalariga ko'ra, investitsiya qilish chog'ida taqdim etiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomalarida investitsiya faoliyati doirasida hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud imkoniyatlarini inobatga olgan holda, investitsiyaga ko'proq muhtoj bo'lgan hamda investorlar uchun yanada qulay kafolat va imtiyozlar yaratadigan **“Investitsiya faoliyatining ustuvor obyektlari”** tushunchasini qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday huquqiy norma chekka hududlardagi investitsion ehtiyoj yuqori bo'lgan obyektlarga mablag'lar jalb etishga xizmat qilib, amaliy investitsiya loyihalari orqali ushbu hududlarning iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi. Bu borada mutaxassis A. Mingazovning ta'kidlashicha, bunday obyektlarning qonunchilikda alohida mustahkamlanishi, iqtisodiyotning rivojlanishga muhtoj bo'lgan sohalariga investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi. Xususan, ana shunday obyektlarga

⁹ F. Zaynobbiddinova. O'zbekiston Respublikasi Hukumat bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari. “O'zbekiston qonunchiligi tahlili” jurnali. 2020/1. B. 105. // URL:

<https://drive.google.com/file/d/1dvx9UtEgUFiekWni-FJzmrEn8dl3gfPm/view>

¹⁰ Цегельник О.В. Инвестиционный договор с государством (Республикой Беларусь или административно-территориальной единицей) // Промышленно-торговое право. – 2006. – №2. – С. 57–60. URL:

<https://core.ac.uk/download/pdf/38546969.pdf>



kapital kiritgan investorlar uchun qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish, ushbu hududni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini ilgari surishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi¹¹.

Xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga doir ayrim afzalliklar belgilangan muddatlarga taqdim etiladi. Shu bilan birga, bu kabi imtiyozlarning doimiy asosda amal qilishi mumkin emas. Eng asosiy jihatlardan biri shundaki, xorijiy investor bilan tuzilayotgan investitsiya shartnomasi doirasida unga boshqa bozor ishtirokchilaridan ustun mavqega ega bo‘lish imkonini beruvchi noaniq huquqlarni berish qat’iyan man etiladi. Bugungi kunda hukumat bilan tuzilayotgan investitsiya shartnomalarida nazarda tutilgan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralarning shartnoma maqsadlari doirasidan tashqarida qo‘llanilayotgan holatlar ham uchramoqda. Masalan, ayrim xorijiy investorlar bojxona to‘lovlaridan ozod qilingan moddiy resurslarni o‘z nazoratidagi boshqa firmalarga o‘tkazib, ularni yuqori narxlarda sotmoqda yoki imtiyozli shartlarda mamlakatga olib kirilgan mulkni ishlab chiqarish ehtiyojlaridan tashqari maqsadlarda ishlatmoqda. Bu esa investitsiya shartnomasi shartlarining buzilishi holatlaridan biri sifatida baholanadi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilgan investitsiya shartnomalarida ularning maqsadga muvofiqligini baholovchi monitoring mexanizmini joriy etish, shuningdek, monitoring natijalariga ko‘ra investitsiya shartnomasini bekor qilish tartibini qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PF-5717-sonli Farmoni¹² va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 22 iyuldagi 616-sonli qaroriga muvofiq, Prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tomonidan “Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi belgilangan¹³. Bu tizim quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

¹¹ Мингазова А.М., Договорное регулирование инвестиционной деятельности: автореф. дис, на соиск. учен. стел, к.ю.н.: спец. 12.00.03 / Казань 2017.- С. 23. // URL <https://www.twirpx.com/file/2162327/>

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019 y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020 y., 06/20/6042/1190-son // URL:<https://lex.uz/docs/4336166>

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.07.2019 y., 09/19/616/3465-son / URL: <https://lex.uz/docs/4432862>

investitsiya loyihalari ustidan tizimli hisob, monitoring va nazoratni yuritish;
loyihalarning vaqtida bajarilishi, byudjeti va asosiy maqsadlariga erishilishini
nazorat qilish;

jalb etilgan va foydalanilgan investitsiyalar, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri
xorijiy investitsiyalar hajmi haqida aniq ma‘lumotlar shakllantirish;

loyiha natijalarini baholash va investitsiyadan keyingi bosqichda kutilgan
ko‘rsatkichlarga erishilganini kuzatish.

Vazirlar Mahkamasining “Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha
hukumat komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qaroriga asosan esa
ushbu komissiyaga investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishini
ta‘minlash borasida ko‘plab funksiyalar yuklatilgan.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlilidan kelib chiqib, shuni aytish
mumkinki, amaldagi tartibda asosan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi
e‘tiborda bo‘lgan bo‘lib, ularni bajarishda asosiy hujjat sifatida tuzilgan investitsiya
shartnomasi shartlariga rioya etilishi masalasi yetarlicha aks ettirilmagan. Shuning
uchun qonunchilikda investitsiya shartnomalari shartlarining bajarilishi bo‘yicha
monitoring mexanizmini ishlab chiqish, ayniqsa davlat tomonidan qo‘shimcha
imtiyozlar, preferensiyalar, soliq va bojxona yengilliklari bilan ta‘minlangan
loyihalarda bu imtiyozlarning maqsadli va samarali qo‘llanilishini baholash
imkonini beruvchi huquqiy asosni yaratish zarur. Shuningdek, ekologik xavfsizlik
investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ajralib turadi. Asosiy qonun -
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash
majburiyati aniq belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim investitsiya loyihalari
ekologik tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, investitsiya shartnomalarida
alohida bo‘lim sifatida ekologik mas‘uliyat va barqarorlik talablari nazarda tutilishi
maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, vakolatli davlat organi tomonidan monitoring
o‘tkazilib, agar shartnomada ko‘zda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar noto‘g‘ri
ishlatilgani aniqlansa, ushbu organ asoslovchi hujjatlar bilan birgalikda yozma
ogohlantirish yuborishi va shartnomani bekor qilish tartibi qonuniy asosda
mustahkamlanishi zarur. Hukumat bilan tuzilgan investitsiya shartnomasi bekor
qilingan taqdirda, investor unga ajratilgan imtiyozlar va preferensiyalar hisobiga
to‘lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha davlat budjetiga to‘liq
hisob-kitob qilib berishi lozim. Ammo agar investitsiya shartnomasi tomonlarning
o‘zaro roziligi asosida muddatidan oldin bekor qilinadigan bo‘lsa, tomonlar



o‘rtasidagi majburiyatlarning bajarilishi ham o‘zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, investitsiya shartnomasi bekor qilingan yoki investitsiya loyihasi yakuniga yetkazilganidan so‘ng, investor o‘zining investitsion faoliyati natijasida olgan daromadlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar to‘lab bo‘linganidan keyin mustaqil tarzda tasarruf etish huquqiga ega bo‘lishi zarur. Bu investorlar uchun huquqiy kafolat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kapitalni qaytarish (repatriatsiya) bu – maxsus tartibga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, u orqali investor ilgari xorijga yo‘naltirgan mablag‘larini o‘z yurti hududiga qaytarib, yangi loyihalarda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday ehtiyoj, odatda, investor mamlakatida yangi moliyaviy imkoniyatlar yuzaga kelganda yoki investitsiya kiritilgan davlatda siyosiy yoki iqtisodiy barqarorlik yomonlashganda paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda kapital eksport qiluvchi mamlakatlar o‘z investitsiyalarining daromadliligini ta‘minlash uchun maxsus kredit va soliq siyosatini, shuningdek, turli kafolatlar va imtiyozlarni nazarda tutadi. Mutaxassislar fikricha, “ko‘pincha repatriatsiya jarayonida ilgari xorijga noqonuniy tarzda kapital chiqargan shaxslarga davlat amnistiya e‘lon qiladi”.¹⁴ Bunga zid ravishda, kapitalni qabul qiluvchi davlatlar esa ko‘pincha iqtisodiy inqiroz sharoitida ilgari jalb qilingan investitsiyani o‘z yurisdiksiyasiga qaytarishga doir cheklovlar joriy etadi.

Bundan tashqari, investitsiya shartnomasi tuzishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yana bir muhim jihat – ushbu shartnoma faqat “xorijiy investor” tushunchasi asosida tuzilishi va unga oid kafolat va qo‘llab-quvvatlash choralari faqat xorijiy investorlar uchun mo‘ljallanganligidir. Bu esa o‘z navbatida qonunchilikdagi bo‘shliq sifatida baholanadi. Amaliyotda esa bu holat, mahalliy investorlarning o‘z mablag‘larini aylantirish yo‘li bilan xorijiy investitsiya sifatida ko‘rsatib, imtiyozlarga ega chiqishga urinishlariga sabab bo‘lmoqda. Agar shunday turdagi investitsiya shartnomalari, masalan, kamida 10 million AQSh dollariga teng xorijiy investitsiya ulushiga ega bo‘lgan loyihalar bo‘yicha tuzilsa, bu shartnomalar orqali taqdim etiladigan imtiyoz va preferensiyalar hajmining ham ancha yuqori bo‘lishi tabiiydir. **Shu jihatdan, xorijiy investorlar qatorida mahalliy investorlar uchun ham teng shart-sharoitlar yaratish, xususan, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat**

¹⁴ Laila Martin, Agatino Camarda. Best practices in tax amnesty and asset repatriation programmes. September, 2017 © 2017 Transparency International. URL: <https://knowledgehubtransparency.org/assets/uploads/helpdesk/>



solig‘i, mol-mulk solig‘i, bojxona to‘lovlari kabi soliq va bojxona preferensiyalarini bir xil asosda taqdim etish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomalari bu investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan bitim bo‘lib, davlat tomonidan qo‘shimcha kafolat va qo‘llab-quvvatlovchi choralarning taqdim etilishi bilan ajralib turadi. Bu holatda davlat, bir tomondan, suveren subyekt, ikkinchi tomondan esa fuqarolik munosabatlarining teng ishtirokchisi sifatida ikki turdagi funksiyani bajarmoqda. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalarini tuzish, ularni amalga oshirish va monitoring qilishga doir normativ-huquqiy baza shakllangan bo‘lsa-da, mavjud amaliyotda qator tizimli muammolar va bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, investitsiya shartnomalarini tuzish tartibida ochiqlik, raqobat va jamoatchilik nazoratini ta‘minlash mexanizmlarining yetarlicha ishlab chiqilmagani, xorijiy investorlar bilan bevosita muzokaralarga asoslangan shartnomalar davlat manfaatlarini to‘liq aks ettirishga doimo xizmat qilmasligi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Investitsiya shartnomalari orqali davlat tomonidan taqdim etilayotgan preferensiyalar va imtiyozlarning shaffofligi, ularning maqsadga muvofiqligi ustidan doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish zarurati mavjud. Shuningdek, ushbu shartnomalarning amal qilish jarayonida inson huquqlari, ekologik xavfsizlik, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish kabi ijtimoiy manfaatlar ham inobatga olinishi lozim. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalarini tuzish jarayoniga oid qonunchilikni takomillashtirish, shartnomalar ustidan monitoring mexanizmlarini kuchaytirish, investitsiyaviy nizolarni hal etishda xalqaro arbitraj institutlarining roli va huquqiy mexanizmlarini yanada aniqlashtirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Research Science and
Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 24 iyundagi investitsiya va eksport sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishidagi nutqi.

URL:<https://president.uz/uz/lists/view/4449>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., №03/19/598/4221. – Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/4664142>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019 y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020 y., 06/20/6042/1190-son // URL:<https://lex.uz/docs/4336166>

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining xorijiy investorlar bilan investitsiya shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish kiritish, bekor qilish va ularni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2020-yil 30-apreldagi 264-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2020 y., №09/20/264/0530. – Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/48040555>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2019 y., 09/19/616/3465-son / URL: <https://lex.uz/docs/4432862>

6. F. Zaynobiddinova. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari. “O‘zbekiston qonunchiligi tahlili”jurnali.2020/1.B.105.//URL:<https://drive.google.com/file/d/1dvx9UtEgUFiekWni-FJzmrEn8dl3gfPm/viw>

6. Данилевич, А.С. Арбитражная оговорка в инвестиционном договоре с Республикой беларусь / А.С. Данилевич // Пром.-торговое право. - 2010. - № 5. - С. 70.

7. Rustambekov I. Business Environment and Investment Climate in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Research. #4, 2019. P.1282 // URL: <http://www.journalijar.com/artcle/27382/business>

8. Цегельник О.В. Инвестиционный договор с государством (Республикой Беларусь или административно-территориальной единицей) // Промышленно-торговое право. – 2006. – №2. – С. 57–60. URL: <https://core.ac.uk/download/pdf/38546969.pdf>

9. Мингазова А.М., Договорное регулирование инвестиционной деятельности: автореф. дис, на соиск. учен. стел, к.ю.н.: спец. 12.00.03 / Казань 2017.- С. 23. // URL <https://www.twirpx.com/file/2162327/>

10. Laila Martin, Agatino Camarda. Best practices in tax amnesty and asset repatriation programmes. September, 2017 © 2017 Transparency International. URL: <https://knowledgehubtransparency.org/assets/uploads/helpdesk/>

11. www.lex.uz

12. URL:<https://president.uz/uz/lists/view/4449>

13. <https://docplayer.ru/56568253-Cifrovaya-ekonomikasingapura-sozdanie-ekonomiki-budushchego-i-iniciativa-uinnaya-naciya-nekotorye-fakty-i-cifry-osnovy-ekonomikisingapura.html>

Research Science and Innovation House